



TRANSMILLIY KORPORATSIYALARNI
MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Akramov Faxriddin Shuhratjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi
huzuridagi biznes va tadbirkorlik oliy maktabi magistranti

Annotatsiya. Hozirgi kunda xalqaro professional biznes-hamjamiyat yutuqlarida rivojlanayotgan bozor mamlakatlarining jahon xo'jalik tizimiga turli shakldagi integratsiyasini, xalqaro tovar, moliya va axborot bozorlariga optimal chiqishning amaliy yo'llarini tashkil qilish, amal qilishi va moslashishi borasida katta tajriba to'plangan. Ushbu maqolada ham transmilliy korporatsiyalarni milliy iqtisodiyotni rivojlanishiga ta'siri tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Transmilliy korporatsiya, milliy iqtisodiyot, rivojlanish, sanoat, korporatsiya.

Аннотация. В настоящее время в достижениях международного профессионального бизнес-сообщества накоплен большой опыт организации, осуществления и адаптации различных форм интеграции стран развивающихся рынков в мировую хозяйственную систему, практических путей оптимального выхода на международные товарные, финансовые и информационные рынки. В этой статье также анализируется влияние транснациональных корпораций на развитие национальной экономики.

Ключевые слова. Транснациональная корпорация, народное хозяйство, развитие, промышленность, корпорация.

Annotation. Currently, in the achievements of the international professional business community, great experience has been accumulated in the organization, operation and adaptation of various forms of integration of developing market countries into the world economic system, practical ways of optimal exit to the international commodity, financial and information markets. This article also

analyzes the impact of transnational corporations on the development of the national economy.

Keywords. *Transnational Corporation, National Economy, Development, Industry, Corporation.*

Mustaqillik yillarida iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tizimida chuqur sifat o'zgarishlari amalga oshirildi, milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi innovatsiya hisobiga yangilandi. Mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi o'rni va mavqei tobora mustahkamlanib bormoqda. Biroq bugungi fan-texnika taraqqiyoti, qolaversa jahon bozorida ro'y berayotgan innovatsion o'zgarishlar erishilgan yutuqlar bilan chegaralanib qolishga imkon bermaydi. Shu bois, milliy iqtisodiyot va jahon bozorida integratsion strategik o'zgarishlarni o'rganish, tadqiqotlarni olib borishni taqozo etadi. Mazkur masalaning ijobiy hal etilishi esa iqtisodiy mustaqillikka erishish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash imkoniyatini yaratadi. Jahon xo'jaligi rivojlanishining zamonaviy bosqichi, umuman olganda, integratsiya, globallashtirish, liberallashtirish jarayonlarining kuchayishi va milliy iqtisodiyotlarning tashqi bozorlarga yo'naltirilgan yanada yuqori ochiqlik darajasining yetakchilik qilishi bilan tavsiflanadi. Milliy darajadagi mazkur tendensiyalar nafaqat xomashyo resurslari va moddiy ishlab chiqarish mahsulotlari eksportini jadallashtirishni, balki texnologiyalar, moliyaviy resurslar, yuqori texnologik mahsulotlar, malakali ishchi kuchi, axborotni faol ayirboshlashni va ijobiy milliy imidjni shakllantirishni anglatadi. Bu strategiya nafaqat ko'pchilik rivojlangan mamlakatlar, balki faol islohotlar amalga oshirilayotgan va asta-sekin yangi sanoatlashgan mamlakatlarga aylanayotgan o'tish xo'jalik tizimiga ega mamlakatlar uchun ham yetakchilik qiladi. Amaliy darajada mazkur strategiya tashqi iqtisodiy faoliyatning aniq usullari va instrumentlari orqali amalga oshiriladi. Bu usullar jahon bozorining uzoq evolyusiyasi jarayonida o'zgarib va optimallashtirib kelgan, va hozirgi vaqtga kelib tuzilmaning faoliyat yo'nalishiga, xalqaro loyiha tavsifiga va bozor sharoitlariga moslashuvchan egiluvchan optimallashtirilgan texnologiyalar shaklini olgan. Ular turli mamlakatlar va mintaqalarning xo'jalik

yurituvchi sub'ektlari tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF)ni tashkillashtirish uchun faol qo'llanilmoqda. Ta'kidlash zarurki, hozirgi kunda xalqaro professional biznes-hamjamiyat yutuqlarida rivojlanayotgan bozor mamlakatlarining jahon xo'jalik tizimiga turli shakldagi integratsiyasini, xalqaro tovar, moliya va axborot bozorlariga optimal chiqishning amaliy yo'llarini tashkil qilish, amal qilishi va moslashishi borasida katta tajriba to'plangan. TIFning integratsion instrumentlarini optimallashtirish bo'yicha doimiy jarayon ketmoqda va bu shakllanayotgan milliy bozor iqtisodiyotlarining kuchayishiga va boyitilishiga olib kelmoqda. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatni qurish, jahonning turli mamlakatlari bilan hamkorlikni rivojlantirish, jahon bozori tizimiga, eng avvalo, tashqi savdoni takomillashtirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali integratsiyalashuv yo'lini tanladi. Tahlil ko'rsatishicha, respublika iqtisodiyotiga jalb qilingan turli shakldagi xorijiy investitsiyalar yildan-yilga o'sib bormoqda. Shu jarayonda TM kompaniyalarni o'rni muxim ahamiyatga ega. Birlashgan Millatlar tashkilotining transmilliy korporatsiyalar bo'yicha komissiyasi transmilliy korporatsiyalarni ta'riflash uchun bir qator belgi va kursatkichlarni belgilab berdi. Bularga quyidagilar kiradi:

- ◆ yillik savdo aylanmasi 1 mlrd. dollardan ortik;
- ◆ kamida 6 ta mamlakatda filiallari bo'lishi;
- ◆ xorijiy aktivlarning ulushi kompaniya aktivlarining 25-30 foizini tashkil etishi;
- ◆ kompaniya jami oborotining $\frac{1}{5}$ – $\frac{1}{3}$ kismi tashki operatsiyalarga asoslanishi, ya'ni mamlakatdan tashqarida bo'lishi lozim.

Transmilliy korporatsiyalar rivojlanishi davomida bir qancha bosqichlarni bosib utganlar. Ilk korporatsiyalar vujudga kelish paytlari (XIX asrning oxirlari)dan biri ular jiddiy o'zgarishlarga duchor buldi. Dastlabki avlod transmilliy korporatsiyalari o'z faoliyatlarini sobiq mustamlakalarda xomashyoni qayta ishlashga yo'naltirilgan edi va shu sababli ular "milliy-xomashyoviy transmilliy

korporatsiyalar” sifatida ta’riflanadi, o‘z tashkiliy ko‘rinishiga va faoliyat yuritish mehanizmiga ko‘ra ular kartellar, sindikatlar va ilk trestlar ko‘rinishiga ega bo‘lganlar. Shundan so‘ng jahon arenasiga xarbiy-texnik mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan trest turidagi transmilliy korporatsiyalar chiqdiyu uz faoliyatini birinchi va ikkinchi jahon urushlari orasida boshlangan bunday ikkinchi jahon urushidan so‘ng ham saqlanib qolib, harbiy texnika, qurol yarog‘lar ishlab chiqarishga moslashganlar. XX asrning 60-yillarida uchinchi avlod transmilliy korporatsiyalari o‘zini ko‘prok nomoyon eta boshladi. Ular fan - texnik taraqqiyot yutuqlarini keng ishlata boshlab, konsernlar va konglomeratlar shaklida faoliyat olib borganlar va “texnikiste’mol kompaniyalari” deb yuritilganlar 60-80 yillar davomida transmilliy korporatsiyalar faoliyatida milliy va xorijiy ishlab chiqarish unsurlari aralashgan holda mahsulotlar sotishda ham, xodimlar ishini tashkil etish va boshkarishda ham, ilmiy-tadqiqot ishlarida ham, marketing va boshqa jabhalarda namoyon bo‘lgandi. Uchinchi avlod transmilliy korporatsiyalari fan-texnik taraqqiyot yutuqlarini jahon xo‘jaligining periferiya mintaqalarida keng tarqalishiga asosiy turtki bo‘lganlar. Lekin eng asosiysi - ular yagona axborot va bozor muhitiga, xalqaro kapital va ishchi kuchi bozoriga ega bo‘lgan xalqaro ishlab chiqarish uchun zamin yaratdilar. Ularning asosiy maqsadi, yangi bozorlarni egallash, yangi xomashyo manbalari, kapital orttirmalari sohalarini egallashdan iborat edi. Tadqiqotlar innovatsion sarmoyalash sifatida transmilliy korporatsiyalar (transmilliy korporatsiya) ko‘rib chiqiladi. TIF samaradorligini oshirishda ularning roli asoslab beriladi. Transmilliy korporatsiyalar jahon iqtisodiyotini xalqaro ishlab chiqarishga aylantirib, ilmiy-texnik taraqqiyotni uning barcha yo‘nalishlarida, ya’ni mahsulotning texnik darajasi va sifati, ishlab chiqarishning samaradorligi, menejment shakllarini, korxonalarni boshqarishni takomillashtirish kabi yo‘nalishlarda jadallashishini ta’minlaydi. Transmilliy korporatsiyalarning investitsion strategiyalari xorijiy kapitalning qo‘shimcha oqimini ta’minlashi mumkin. So‘nggi yillarda korporativ strategiya global jarayonlarga yo‘naltirilgan, to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar esa uning ajralmas qismiga aylangan. Bundan tashqari,

yangi texnologiyalardan foydalanar ekan, kompaniyalar xorijiy bozorlardagi o'z holatini kuchaytirish va kapital qo'yilmalar samaradorligini oshirish uchun strategik imkoniyatlarni mustahkamlaydi. O'tgan yilda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish sohasida erishilgan natijalar tahlili O'zbekistonda investitsion iqlimning yanada yaxshilanishini ko'rsatadi, bu esa o'z navbatida, iqtisodiyotda tuzilmaviy o'zgarishlarni izchil amalga oshirish imkoniyatlari kengayganligidan dalolat beradi. Shunday qilib, investitsion faoliyat butun milliy iqtisodiyotga va shuningdek, uning TIF rivojlanishiga katta ta'sir o'tkazadi. Davlatlarning iqtisodiy rivojlanish modellarini tahlili ko'rsatishicha, iqtisodiy rivojlanishning istalgan modeli ma'lum bir tashqi muhitda faoliyat yuritir ekan, investitsion siyosatning ta'siriga duch keladiki, ular o'z navbatida, mazkur siyosatning amalga oshirilishiga ta'sir ko'rsatadi. Saksoninchi yillardan to'rtinchi avlod transmilliy korporatsiyalari shakllandi va o'z o'rniga ega bo'la boshladilar. Ularning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- iste'mol bozorini planetalar darajasida ko'ra bilish va raqobatga jaxon miqyosida bardosh bera olish;
- jaxon bozorini o'ziga o'xshash bir necha transmilliy korporatsiyalar bilan bo'lib olish;

- o'z filiallari faoliyatini yangi axborot texnologiyalar orqali muvofiqlashtirib borish;

- har bir aloxida ishlab chiqarish bo'g'inini ishini tashkil eta bilish, korporatsiya buxgalteriyasi va auditi xisobotini yagona tizimda shakllantirish;

- o'z filiallari, zavodlari va qo'shma korxonalari yagona xalqaro boshqaruv markaziga birlashtirish;

- transmilliy korporatsiyalar joylashgan mamlakatlarga siyosiy va iqtisodiy jihatdan ta'sir o'tkaza olish.

Shunday qilib, ularning strategiyasi innovatsion tusini olgan, bitta tarmoqli strukturadan voz kechishi bilan ajralib turadi ("GM" korporatsiyasining mamlakatimizdagi faoliyatini oladigan bo'lsak: avtomobillar ishlab chiqarish bilan

birga unga yordamchi ishlab chiqarishlar – oyna, bo‘yoqlar, ehtiyot qismlarini chiqarish va turli servis xizmatlarini ko‘rsatish ham yo‘lga qo‘yilgan; bundan tashqari elektr texnikasi sohasida, shuningdek, avtobuslar o‘tkazib berish hamda ularga xizmat ko‘rsatish borasida ham ancha olg‘a yurilgan). Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiya qilish sharoitida tashqi savdoni rivojlantirish uchun eksport salohiyatini oshirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoyev. - Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2016. – 56 b.
2. Ishmuxamedov A.E., Yusupov A.S. Milliy va jahon iqtisodi- yoti: darslik. – T., 2010 y. – 16-18 bb.
3. Jumayev N.X., Abduraxmonov O.Q. Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi: sabablari va uni bartaraf etish muammolari. – T.: Akademnashr, 2010. – 160 b.
4. Мировая экономика: учебник / под ред. Б.М.Смитиенко. – М.: Высшее образование, Юрайт-Издат, 2009. – 581 с.
5. Фаминский И.П. Глобализация – новое качество мировой экономики: учеб. пособие. – М.: Магистр, 2009. – 397 с.